

QADIMGI ERON ILK O`RTA ASRLAR SIVILIZATSIYASIDA DINIY MUNOSABATLARNING O`RNI

*O`zMU Tarix fakulteti
2-bosqich magistranti
Otajonova Gulnoza Karimjon qizi*

ANNOTATSIYA

Ushbu tezis Qadimgi Eron ilk o`rta asrlar sivilizatsiyasida diniy munosabatlarning o`rni mavzusiga bag`ishlangan. Unda Eron davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishidagi diniy tizimlarning, xususan, zardushtiylilik, manixeylik va mazdakiylik dinlarining o`rni atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur dinlarning jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotga ta`siri, shuningdek, turli diniy oqimlar o`rtasidagi munosabatlar va ular sabab yuzaga kelgan ixtiloflar ko`rib chiqiladi. Asosiy e`tibor Eron imperiyalarining (Ahamoniylar, Parfiyaliklar, Sosoniylar) boshqaruv tizimida dinning tutgan o`rniga qaratilgan bo`lib, diniy qarashlarning davlat mafkurasi sifatida qanday shakllanganligi va undan siyosiy maqsadlarda foydalanilganligi yoritiladi.

АННОТАЦИЯ

Данная диссертация посвящена теме **«Роль религиозных отношений в цивилизации Древнего Ирана и раннего Средневековья»**. В ней подробно анализируется роль религиозных систем, в частности зороастризма, манихейства и маздакизма, в формировании и развитии иранской государственности. В исследовании рассматривается влияние этих религий на социальную, политическую и культурную жизнь общества, а также взаимоотношения между различными религиозными течениями и конфликты, возникавшие между ними. Основное внимание уделяется роли религии в системе управления иранских империй (Ахемениды, Парфяне, Сасаниды), освещается, как религиозные взгляды формировались в качестве государственной идеологии и использовались в политических целях.

ANNOTATION

This thesis is dedicated to the topic **"The Role of Religious Relations in the Civilization of Ancient and Early Medieval Iran"**. It provides a detailed analysis of the role of religious systems, particularly Zoroastrianism, Manichaeism, and Mazdakism, in the formation and development of Iranian statehood. The study examines the influence of these religions on the social, political, and cultural life of society, as well as the relationships and conflicts that arose between various religious movements. The main focus is on the role of religion in the governance systems of the

Iranian empires (Achaemenids, Parthians, Sasanids), highlighting how religious views were shaped into state ideology and used for political purposes.

Zardushtiylik Eronda asosiy din hisoblangan. Davlat dini sifatida maxsus homiylar tomonidan himoyaga olingan. Qadimgi Avesto kitobi III asrgacha parchalangan holda saqlanib. Ardasher bu kitobning butun holatga kelishini rad etdi. Faqat Shopur II davriga kelib kitob butunligi ta'minlandi va kitob 21 ta nasklarga bo'lindi¹. O'zining qadimgi qatlamlarida Avesto Hindlar va Forslar bilan bog'liqligini uning madhiyasidan (Gatlar) bilib olishimiz mumkin. Boshqa qismlari esa asosan adabiyot va qonun tuzmlari haqida edi. Hayot saboqlari haqidagi qismidan tez-tez nusxa ko'chirilgan. Shuning uchun ular bizgacha yetib kelgan. Umuman saqlanib qolingani qismi haqiqiy kitobning atigi to'rt dan birini tashkil etardi. Avesto umumiy holda kosmologiya, astronomiya, fiqh fanlari ensiklopediyasi edi².

Eron yil hisobi 12 oyga bo'lingan va har bir oy xudolar nomi bilan atalgan. Bayramlar qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Asosiy bayram bu yangi yil bayrami, ya'ni Navro'z hisoblangan. Bu bayramda odam bir-biriga bir so'z aytishdan oldin oqar suvga borib yuvinib olishgan va xursandchilik boshlangan. Shahanshoh bayramning birinchi besh kunida katta mulkdorlar bilan bayram qilgan va yangi amaldorlarni saylagan bo'lsa, oltinchi kundan boshlab bayramni o'ziga yaqin insonlar bilan nishonlagan.

Yana bir yangi dinlardan biri bu moniy dinidir. Bu din o'zining tarkibiga zardushtiylikda man etilgan narsalarni ham olardi. Moniy 215 yilda Arshakiylar sulolasiga tegishli mashhur oilada tug'ilgan, yoshligidan yaxshi ta'lim olgan. Moniy yoshligidan Zardushtiylik, xristianlik dinlari bilan tanishib chiqqan va u o'zining dunyoqarashidan kelib chiqib, boshqa dinlarning o'rini bosadigan o'z dinini yaratdi. Ardasher podsholigi davrida u Hindistonga sayohat qilib, o'z dinini targ'ib qiladi. Shopur I podsholigi davrida u yana eronga qaytib keladi va Shopur II ning toj kiydirish marosimida yangi shoh bilan tanishib qoladi. Bu yerda u endi forslarga o'z ta'limotini o'qitadi. Shopur o'z davrida moniylik dinining tarqalishiga biroz yo'l qo'yadi. Bu din ayniqsa Rim imperiyasi tarafidagi forslarga yoqib tushadi va tez tarqaladi. Keyinchalik Moniy Eronni ham tark etib, Markaziy Osiyoga yo'l oladi. Eronga qaytib kelganida kohinlar tomonidan qo'lga olinadi. Zindondagi qiynoqlar sababli halok bo'ldi (276-y)³. Moniylik dini zardushtiylik dini kabi murakkab emas edi. Shuning uchun bu dinga e'tiqod qiluvchilar soni ko'payib borardi.

Moniylik paxlaviy tilida ham yozilgandi. Moniy xatlari Sug'dlar tomonidan ham tan olindi va asta sekin Markaziy Osiyoga ham ushbu alifbo tarqala boshladi. Bu yerda keyinchalik "moniylik" ijodiy san'ati ham rivojlandi. Moniyning o'zi birinchi bo'lib

¹ Васильев В. История Востока 2-том. М., 2004. – С.74.

² Коновалова Н. Средневековый Восток. – М. 2004. – С. 26.

³ Васильев В. История Востока 2-том. М., 2004. – С.78.

miniyat yura san'atini boshlab berdi va rivojlantirdi. Moniylik to'g'risida ma'lumotlarni o'sha davrdagi suriya va grek adabiyotlarida ham uchratish mumkin. Moniy to'g'risidagi eng muhim ma'lumotlar koin tilida yozib qolingan.

Ilk o'rta asrlarda Eronning katta hududlarida xristianlik dini ham keng tarqala boshladi. Rimda xristianlik dini davlat diniga aylangandan so'ng, imperiya eronning xristianlariga siyosiy tarafdorlar sifatida qaray boshladilar. Eronda xristian diniga qarshi siyosat IV asrning 30- yillaridan boshlab, V asrning 80 yillariga qadar davom etdi⁴.

Shoz Qubodning navbatdagi bajarishi lozim bo'lgan vazifalaridan biri eronning tang ahvolidan foydalanayotgan ayrim guruhlarini bir joyga to'plashdan iborat edi. Qubod shunday hayron qoldiradigan so'zlardan foydalandiki, o'z nutqida u eftaliylar harbiylarini ham yodga oldi. Timutiylar va kudishiylar qabilalari uni so'zsiz tan oldi, lekin Armaniston Qubodni tan olishi uchun, avvaliga forslar quroli armanlarga qarshi ishlatildi. Qubod ularni bu qiligi uchun jazolamasdan, aksincha kim uning sherigiga aylansa va rimliklarga qarshi jangda qatnashsa, o'shalarni mukofotlashini aytdi.

O'zining navbatdagi faoliyatida Qubod taxtga kim o'tirishi haqidagi savolga javob izlardi. To'ng'ich o'g'li Kaus mazdakiylar tarafdori edi, shuning uchun uni taxtadan mahrum etdilar, chunki davlatning keyingi siyosatida bu harakatning ildiz otishiga yo'l qo'yib bo'lmasdi. O'zining vorisi etib Qubod Xusravni tayinladi.

Bu orada Kavkazda Eron va Vizantiya o'rtasida katta kuch bilan urush boshlanib ketgandi. Eron Gruziyadan yordam kuchi olishni xohlardi. Lekin Gruzin shohi Gurgun Vizantiyadan yordam kuchi so'rab, 527 yilda eron va Vizantiya orasidagi janga "olov purkadi". Bu jangda kurashmasdan Xusravni voris etib tayinlash mumkin emas edi. Qubod mazdakiylar harakatiga duch keldi. Faqatgina 528-529- yillardagi qaqshatgich zarba bu harakatni to'xtatdi. 531 yili Qubod qattiq betob bo'ldi va olamdan ko'z yumdi. O'z vasiyatida Qubod kelajagi porloq kuch-quvvatga to'la o'g'li Xusravni koinlar va amaldorlar guvohida taxtga voris etib tayinladi. Uning podshoh ekanligidan foydalanib, mazdakiylar pinxona va yashirincha o'zining o'tkir siyosatini olib borishi mumkin edi. VIII asrda Markaziy Osiyodagi Muqanna qo'zg'oloni⁵ va IX asrda Kavkazda, Bobek boshchiligidagi harakatlar mazdakiy ta'limoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

V-VI asrlarda Eron davlat tuzumiga zarba berayotgan ijtimoiy harakatlardan larzaga kelgandi. Bu harakatlarning asosi ancha oldingi davrga borib taqaladi. III asrda Diokletian imperatori davrida Ioann Malalning yozishicha Rimda Moniylik dini tarqala boshladi. Uning ta'limotiga ko'ra dunyoda yovuzlik ustidan har doim yaxshilik g'olib keladi. Bu ta'limot eronda ham davom ettirildi. Bu ta'limotga ko'ra yovuzlik ustidan g'alaba qozonish uchun odamlarning ham yordami zarurdir. Bu ta'limotning

⁴ Коновалова Н. Средневековый Восток. – М. 2004. – С. 28.

⁵ Абдуллоев Ш.С. Иран в эпоху Сасанидов: структура государственной власти и идеология / Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 60.

targ'ibotchisi V asr oxiri va VI asr boshlarida Mazdak bo'lgan, keyinchalik uning nomi bilan mazdakiylar harakati vujudga kela boshladi. Mazdakning muvaffaqiyati uning ta'limotida ijtimoiy shiorlarning ham mavjudligida edi.

Xalqning katta qo'zg'olonlari V asrning oxirlarida yanada keskinlashdi va bunga asosiy sabab, noqulay tabiiy sharoit bo'ldi. Yana qaytalangan ofatlar-qurg'oqchilik, chigirtkalarining uchib kelib dalalarni payhon qilishi ocharchilikka olib keldi.

Dehqonlarning ko'pchiligi hosildor yerlarni tark etib shaharlarga jo'nab ketishdi.

Ocharchilikdan o'lim ko'payib ketdi. Mazdakiylar harakati xuddi shu xalqning sabr kosasi to'lgan paytta boshlandi⁶. Eronning Sosoniylar sulolasi birinchi podshosi davridan yangi iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'lish arafasida edi. Ulardan asosiylari bular feodal tuzumga o'tish va yangi shaharlarning vujudga kelishi edi. Yangi qurilgan inshootlar savdo sotiq maskaniga aylantirilib, hunarmandchilikning rivojlanishiga keng yo'l edi.

Ayniqsa VI asrda shahar aholisi intensiv suratlar bilan rivojlana boshladi.

Eronning sharqiy qismlari o'zining ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachiligiga ega edi. Eronning janubi kabi sharqiy qismlarida ham dehqonlar bir oiladay yashab, o'z iqtisodiy mutanosibligini ta'minlashgan. Ular ham o'zlarining boshliq va boshliqlariga ega bo'lganlar.

Davlatda keng tarqalayotgan mazdakiylar harakati har tomondan, chetdan ham qo'llab-quvvatlanardi. Oldingi feodal jamoasining qozg'oloniga sabab siqib chiqarishlar va ularni egalik qilgan yerlaridagi dehqonlarning o'zaro kelishmovchiligida edi. Dehqonlarning noroziligiga sabab, ularni majburan feodal yer egalariga bog'lab qo'yish bo'ldi va bundan norozi dehqon to'g'ridan to'g'ri mazdakiylar harakatiga qo'shilishdi⁷.

Qozg'olonchilar ichida eng faoli eranshahrikonlar edi, chunki ular bu paytga kelib feodal zulmidan charchagan edi.

Davlatning aynan shu dehqonlar qatlami qattiq ezilardi, chunki eftaliylar bilan bo'lgan jangda shoh Feruz soliqlarni ko'pini dehqonlar yelkasiga osgan edi. Valash davrida ahvol yaxshilanish o'rniga yanada yomonlashardi. Valash davrida dehqonlar ochlikka chidolmay o'z uylari va yerlarini tark etib qochishiga olib keldi. Buning oldini olish maqsadida u bir necha qarorlar qabul qildi, lekin bu ham yordam bermadi. Bundan g'azablangan kohinlar harbiylarni ishga solib uni o'ldirishdi (488-y) va taxtga endi Feruzning yana bir o'g'li Qubod keldi.

Harakatlar rivojida katta rolni Mazdak targ'ibotchisi va shaxanshoh Qubod (Qavad) o'ynagan. Uni manbalarda dohiy sanashadi, chunki u shaxanshoh Qubodni o'z tomoniga og'dirib olishga muvaffaq bo'ldi. U "oddiy xalq yetakchisi"ga aylandi va Qubodni don

⁶ Мунирова С.А. Технологические достижения в древнем Иране и их влияние на соседние цивилизации / Автореф. дисс. ... канд. историко-технических наук. – Тегеран: Университет, 1984. – С. 45.

⁷ Бекмуродов Р.Ю. Роль Ирана в формировании торговых путей в древнем Востоке / Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 50.

ombori yaratishiga ishonardi⁸. Mazdakiylar tomonidan boshqarib borilayotgan harakatlar yovuz va bosqinchilik xarakteriga ega edi. Ular bironing uyiga bostirib kirib talon taroj qilishardi. Bu ta'limotda "hamma bir ota havo, ona momodan tarqalgan, qiyinchilik paytta bir- birimizga yordam beraylikki, toki hech kim och va yo'qchilikda qolmasin" degan fikrlar ilgari surilgan edi.

Qubod 506 yilda Vizantiyani yengib, tinchlik sulhini tuzdi. Vizantiya ma'lum bir qism yerini eronga berishga majbur bo'ldi. Bu yerlardan keyinchalik Xunlar sulolasi vakillari sekin-asta Kavkaz tog'lariga va Kaspiy darvozasi bo'lgan Osiyoga kirib bordilar. 516-yilda Xunlar Armanistonga hujum uyushtirishdi. Qubod eronning Kavkaz chegaralarini mustahkamlashga kirishdi. Bu shaharni u Feruz-Qubod deb nomladi. Qubod yana bir nechta shaharlarga asos soldi⁹. Uning hukmronligi tugagach taxtga kim o'tirishi muammoga aylandi, uning katta o'g'li Kaus esa mazdakiylar harakati tarafdori edi. Zamashpa ma'lum muddat boshqaruvda bo'ldi, lekin u ham janglardan qo'rqib qochib ketdi.

Taxtga qaytgan Qubod bir nechta o'ziga qarshi chiqqan kohinlarni qatl ettirdi. Boshqalarini u kechirib, umumiy til topishga muvaffaq bo'ldi. Quyidagi janglar shohning, kohinlarning, harbiylarning faoliyati bilan to'liq tasvirlangan. Barcha g'alabalarning negizida Qubodning xizmatlari katta edi va u boshqa mazdakiylarning yordamiga muhtoj emas edi. Siyosatning yangi bosqichida Qubodning maqsadi, qonli jang qilib bo'lsa ham ularni yo'q qilish bo'lgan va bunga Qubod hayotligida o'g'li Xusrav erishdi. Mazdak ta'limoti zardusht va xristian kohinlari tomonidan rad etildi. 529 yili Xusrav buyrug'i bilan Mazdak qatl etildi. Bu hodisaning afsonaviy sharhlari, keyinchalik VI asrda fors va arab tarixchilari tomonidan Mazdaknomada yozib qoldirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Агаев С.Л. Иран между прошлым и будущим: События. Люди. Идеи. М., 1987
2. Abisaab Rula Jurdi. *Converting Persia: Religion and Power in the Safavid Empire*. - I. B. Tauris, 2004. — 256 p. — ISBN: 978 1 86064 970 7.
3. Bosworth Clifford Edmund. *The History of the Saffarids of Sistan and the Maliks of Nimruz (247/861 to 949/1542-3)*. - California ; New York: Mazda Publishers in association with Bibliotheca Persica, 1994. — 553 p.
4. Christensen P. *Decline of Iranshahr: Irrigation and Environment in the Middle East, 500 BC-AD 1500*. - I.B.Tauris, 2016. — 368 p.

⁸ Рахматов Т.С. Исламская культура Ирана и ее влияние на развитие науки и философии / Автореф. дисс. ... канд. философских наук. – Баку: Элм, 1987. – С. 49.

⁹ Джалилова З.А. Трансформация религиозных верований в Иране в раннем Средневековье / Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ашхабад: Туркменистан, 1990. – С. 53.

5. Durand-Guédy David, Mottahedeh Roy. Cities of Medieval Iran . Brill, 2020. — 500 p.
6. Kamali Maryam. Social Change in Medieval Iran 132-628 AH (750-1231 AD): The Perspectives of Persian Historiography. Amsterdam University Press, 2023. — 282 p.
7. Аджиджи М. Азиатская Европа/Мурад Аджиджи. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2008. –С. 526.
8. Акимушкин О.Ф. (отв. ред.) Очерки истории культуры средневекового Ирана. Письменность и литература . - М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1984. – 267 с.
9. Акимушкин О.Ф. Средневековый Иран. Культура, история, филология. СПб.: Наука, 2004. — 404 с.
10. Акимушкин Олег. Очерки истории культуры Средневекового Ирана. Москва: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1984. — 267 с.